

Date: 17th April-2026

INVENTARIZATSIYA O`TKAZISH JARAYONLARINING AHAMIYATI VA TASNIFLANISHI

Муқумов Зафар Авазмуротович

ТДИУ “Молиявий ҳисоб ва ҳисобот” кафедраси доценти

Файзуллаева Ойдин

ТДИУ магистратура талабаси



„O`zbekiston-2030” strategiyasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va „ daromadi o`rtachadan yuqori davlatlar “ qatoriga kirish , mamlakatda kambag`allik darajasini qisqartirish , aholini daromadli mehnat bilan band qilish „²⁰ kabi ustuvor maqsadlar belgilab qo`yilgan . Milliy hisob tizimida inventarizatsiya o`tkazish jarayonlari va natijalatrini rasmiylashtirish shuningdek , uni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibining nazariy , tashkiliy va uslubiy jihatlari umumiy asoslarda berilgan bo`lib , bugungi kunda ularni MHXSga uyg`unlashtirish va hisobini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda . Shu bilan birga , tadbirkorlik subyektlari (aksiyadorlik jamiyatlari , tijorat banklari , sug`urta tashkilotlari va yirik soliq to`lovchilar toifasiga kiradigan yuridik shaxslar) tomonidan 2021-yil 1-yanvardan MXHS asosida buxgalteriya hisobini tashkil etilishi va moliyaviy hisobotni tayyorlashi belgilangan . Bu esa tadbirkorlik subyektlari va barcha xo`jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining asosiy usullaridan biri bo`lgan inventarizatsiyani to`g`ri o`tkazish va natijalarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirishni takomillashtirish zaruratini yaqqol ochib beradi .

O`zbek tilining izohli lug`atida inventarizatsiya so`zi „ Korxonada , muassasa , xo`jalik va shu kabilarning balansida turgan ashyolarning mavjudligini , qanday saqlanayotganligini , shuningdek , ombor xo`jaligi bo`yicha ma`lumotlarni davriy ravishda tekshiruvdan o`tkazish va yo`qlama qilish “²¹ sifatida ta`riflanadi . Ya`ni inventarizatsiya korxonada mavjud bo`lgan mulklarning saqlanishini ta`minlash , ularning nazoratini yaxshilash uchun olib borilayotgan hisob ma`lumotlarini qanchalik to`g`riligini va haqiqiylikini aniqlash maqsadida o`tkaziladi .

Har bir xo`jalik yurituvchi subyektga qarashli bo`lgan barcha mol-mulklar , u qayerda joylashgan bo`lsa ham , qanday moliyaviy majburiyatlarga bog`liq bo`lsa ham , har doim inventarizatsiya qilinishi shart . Chunki bu mol-mulknı inventarizatsiyadan o`tkazmasdan uning aniq holati haqida bilish imkoni yo`q .

Korxonada mulklar sifatida asosiy vositalar , xom ashyo , materiallar , tayyor mahsulot , tovarlar , pul mablag`lari va boshqa moliyaviy aktivlar tan olinadi . Korxonada nafaqat aktivlar balki barcha majburiyatlar ya`ni kreditorlik va boshqa barcha qarzlarni ham inventarizatsiyadan o`tkaziladi . Ushbu jarayon orqali hisobda aks ettirilgan ko`rsatkichlarning haqqoniyligini ta`minlash mumkin .

²⁰ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>


²¹ <https://izoh.uz/word/inventarizatsiya>

Date: 17th April-2026

Inventarizatsiya o`tkazish maqsadlari , qoidalari , xususiyatlari shuningdek inventarizatsiya o`tkazishdan olingan natijalarning qay tartibda rasmiylashtirilishi O`zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti 19-sonli BHMS da belgilab qo`yilgan . Ushbu BHMS ga ko`ra inventarizatsiyaning o`tkazish vaqti bo`yicha ushbu turlari mavjud :

Rejali inventarizatsiya - ko`zda tutilgan (qonunda belgilangan yillik , yarim yillik yoki choraklik o`tkaziladigan) va korxonaning moddiy javobgar shaxslari navbatdagi mehnat ta`tiliga chiqishidan oldin o`tkaziladigan inventarizatsiya .

Rejadan tashqari inventarizatsiya - qonunda belgilangan holatlar yuz berganda o`tkaziladigan ko`zda tutilmagan inventarizatsiya .



1.1 - jadval . 19-sonli BHMS asosida tuzilgan inventarizatsiya o`tkazishning tartibi haqida²²

Rejali inventarizatsiya korxonalarda odatda yillik hisobot tuzilishidan avval 1-oktyabrdan keyin o`tkaziladi . Bu esa yillik hisobotlarning haqqoniyligini ta`minlanishiga bir asos bo`lib xizmat qiladi . Lekin qonun bilan belgilab qo`yilgan boshqa holatlar ham mavjudki , ularga ham e`tibor qaratish lozim , ya`ni tovar-moddiy zaxiralar bir yilda kamida bir marta²³ , asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta²⁴ , kutubxona fondlari besh yilda bir marta , yirik asosiy vositalar uch yilda bir marta , oziq-ovqat tovarlari bir yilda ikki marta , kassadagi pul mablag`lari esa har oyda

²² Muallif tomonidan shakllantirilgan

²³ O`zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining [milliy standarti](#) (4-sonli BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar" (ro`yxat raqami 1595, 2006-yil 17-iyul)ga muvofiq

²⁴ O`zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining [milliy standarti](#) (5-sonli BHMS) "Asosiy vositalar" (ro`yxat raqami 1299, 2004-yil 20-yanvar)ga muvofiq



Date: 17th April-2026

inventarizatsiya qilinadi²⁵ . Buni quyidagi jadvalda yanada yaxshiroq ko`rishimiz mumkin .

Rejasiz inventarizatsiya o`tkaziladigan holatlar ham qonun bilan tartibga solingan . Quyida keltirilgan hollarda majburiy inventarizatsiya o`tkaziladi :

1 . Moddiy javobgar shaxs o`zgarganda ;

Moddiy javobgarlikning brigada usulida :

50% brigada a`zolari o`zgarganda ,

brigada boshlig`i o`zgarganda ;

3 . Yong`in , tabiiy ofatlar ro`y berganda , ular tugatilgan zahoti .

4 . O`g`irlik haqida xabar olingan zahoti ;

5 . Mulkchilik shakli o`zgarganda ;

6 . Inventarizatsiya o`tkazilishi haqida moddiy javobgarlik brigadasi a`zolaridan ariza olinganda taqdirda ;

7 . Boyliklar buzilishi aniqlanganda ;

8 . Boyliklar qayta baholanishi amalga oshirilganda ;

9 . Asosiy vositalar ijarasi ro`y berganda (asosiy vositalar inventarizatsiyasi ;

10 . Korxonaga tugatilayotganda .

Inventarizatsiyani yuqorida o`tkazilish tartibiga ko`ra turlarga bo`ldik , bundan tashqari inventarizatsiya mablag`larning qancha qismini inventarizatsiya qilishga qarab ham tasniflanadi . Bunga ko`ra inventarizatsiya ikki turga bo`linishi mumkin :

-to`liq ;

-qisman .

To`liq inventarizatsiyada nomidan ham anglash mumkin , korxonaga tegishli bo`lgan mulklarning barchasi inventarizatsiyada o`tkaziladi va bunday turdagi inventarizatsiya asosan bir yilda bir marotaba o`tkazilishi shart ya`ni yillik hisobot tuzilishidan avval .

Qisman o`tkazilgan inventarizatsiyada esa korxonaga tegishli bo`lgan mulklarning faqatgina qaysidir br qismi inventarizatsiya obyekti bo`lib xizmat qiladi .


Inventarizatsiya o`tkazish jarayonlari qanday usulda o`tkazilganligiga qarab ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin , bular natural usulda yoki hujjatli usulda . Natural usulda inventarizatsiya o`tkazilganda moddiy qiymatliklar bevosita tekshiriladi , haqiqatda mavjudligi sanaladi , real holat aniqlanadi . Shu bois ham natural usul eng ishonchli usul hisoblanadi buyumlarning haqiqatda mavjudligi sanaladi . Hujjatli inventarizatsiya o`tkazilganda esa ma`lumotlar hujjatlar yordamida tekshiriladi , obyektlarning real mavjudligi bevosita ko`rib chiqilmaydi balki bog`liq bo`lgan hujjatlar ko`rib chiqiladi . Misol uchun omborda 100 dona mahsulot borligi haqidanhujjatda yozilgan bo`lsa , shu yozuv tekshiriladi lekin , amalda sanalmaydi . Buxgalteriya amaliyotida natural usul va hujjatli usul birgalikda foydalanilsa , korxonaga eng yaxshi natijaga erishishi mumkin ,

²⁵ "O`zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o`tkazish"ni tasdiqlash haqida"



Date: 17th April-2026

chunki natural usul moddiy boyliklarning aniqlashga yordam bersa , hujjatli usul hisob ma`lumoqlarini tekshirishga xizmat qiladi.



1.2 - jadval . Inventarizatsiyaning tasniflanish jadvali. ²⁶

Shuningdek , inventarizatsiyaning tasniflanishi va korxonalar samaradorligidagi o`rni haqida xorijiy va o`zbek iqtisodchi olimlarining ham turli fikrlari mavjud . Mutaxassislar K.Yashenko , Ye.Moiseenko va S.Agafonovalar, K.B.Urazov , R.O.Xolbekov , B.I.Isroilov , F.G`.G`ulomova , D.F.Ruziyeva²⁷ va boshqalarning asarlarida inventarizatsiya o`tkazish jarayonlari va natijalarni qayd etish borasida ko`plab fikrlar va mulohazalar o`rin olgan .

Hozirgi kunda korxonalar juda ko`p masalalarda erkinlik berilmoqda va bu korxonalar inventarizatsiya o`tkazish muddati va ob`ektini o`zi hal qilishi belgilanganida ham o`z aksini topadi. Inventarizatsiya o`tkazish muddati va ob`ekti ko`rsatilgan ro`yxat korxonalar rahbari tomonidan yil boshida mustaqil ravishda tuziladi . Bu ro`yxatda inventarizatsiya o`tkazish komissiyasi a`zolari tarkibi ham belgilab beriladi . Bu ro`yxat korxonalar rahbari tomonidan tasdiqlanadi .

²⁶ Muallif tomonidan shakllantirilgan

²⁷ Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. iqtisod fan.dok ... o`quv qo`llanma . Toshkent ,, O`qituvchi'' 2004 . R.O.Xolbekov va B.I.Isroilov Buxgalteriya hisobi nazariyasi . Darslik . Toshkent ,,Tafakkur'' nashriyoti 2020 . F.G`.G`ulomova . Zamonaviy buxgalteriya hisobi :Noldan balansgacha . O`quv qo`llanma va masalalar to`plami . Toshkent 2012. D.F.Ruziyeva . Qishloq xo`jalik korxonalarida inventarizatsiya o`tkazish . diss.avtoref... - T, 2025.



Date: 17th April-2026

Iqtisodchi mutaxasis K.B.Urazov inventarizatsiyaning xarakterli xususiyatlari haqida quyidagi fikrlarni bildirgan : „ Inventarizatsiya to`satdan o`tkaziladi , ya`ni moddiy javobgar shaxs uni o`tkazilishi haqida oldindan xabar topmasligi lozim . Inventarizatsiya rahbarning buyrug`i yoki farmoyishi bilan tasdiqlangan doimiy harakatdagi yoki ishchi inventarizatsiya komissiyalari tomonidan o`tkaziladi , ushbu komissiyaga moddiy javobgar shaxs albatta kiritiladi . Inventarizatsiya ma`lum muddatda o`tkaziladi , uning boshlanish va tugash vaqti buyruqda yoki farmoyishda ko`rsatilgan bo`lishi kerak . Inventarizatsiyani o`tkazish belgilangan tartibda va usullarda amalga oshiriladi . Inventarizatsiya natijalari maxsus sanoq va taqqoslash dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi . “²⁸

Inventarizatsiyaning iqtisodiy ahamiyatini tushinish uchun uning tub mohiyatini chuqur anglab yetish lozim . Inventarizatsiyadan o`tkazish deganda shunchaki mol-mulkni ro`yxatini olish va borligini hisob registrlari bilan solishtirish tushunilishi kerak emas . Balki inventarizatsiya o`tkazilganda obyektlarni hisobga olishda tan olish , ma`lumotlarni hisobotlarda ko`rsatish mezonlariga mosligini baholash , shuningdek ularning inventarizatsiya o`tkazilayotgan sanadagi puldagi bahosini ham aniqlash lozim . Inventarizatsiya qilish keng ma`noda tahlil qilinganda nafaqat to`g`rida-to`g`ri va bilvosita tekshirish xususiyatlariga , balki to`g`ri buxgalteriya hisobotlarini tuzish imkonini beradigan sifatlarga ega ekanligi ko`rinadi .

Inventarizatsiya korxonada moliyaviy-xo`jalik faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi . Uning iqtisodiy ahamiyati keng qamrovli bo`lib , u faqatgina hisobotlarning aniqligini ta`minlash , aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy holatini aniqlashga xizmat qilmaydi balki , korxonada faoliyatining samaradorligini oshirishga , boshqaruv qarorlarini qabul qilishga , resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy xavflarni kamaytirishga ham o`z xissasini qo`shadi .

Birinchidan , inventarizatsiya orqali korxonaning moddiy resurslardan qay darajada oqilona foydalanganligi baholash mumkin . Bu esa tahlil orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam bera oladi .

Ikkinchidan , inventarizatsiya o`tkazish jarayonlari orqali korxonada moliyaviy intizomni mustahkamlash mumkin . Chunki korxonada xodimlari o`z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarishi va mas`uliyatlarini yanada chuqurroq anglab yetishlariga xizmat qiladi va talon-taroj xolatlarining oldini oladi .

Uchinchidan , korxonada inventarizatsiya o`tkazish natijasida aniqlangan ortiqchaliklar va kamomadlar qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi hamda hisob registrlarida aks ettiriladi . Bu esa moliyaviy hisobotlarda aniq bo`lmagan yoki noto`g`ri ma`lumotlar berilish holatini kamaytiradi .

To`rtinchidan , korxonada o`tkazilgan inventarizatsiya orqali aktivlarning haqiqiy qiymati aniqlanadi , bu esa korxonaning investitsion jozibadorligini oshishiga xizmat

²⁸ Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. iqtisod fan.dok ... o`quv qo`llanma . Toshkent „ O`qituvchi“ 2004



Date: 17th April-2026

qiladi . Investorlarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotlardagi ma`lumotlarning to`g`ri taqdim etilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi .

Beshinchidan , inventarizatsiya o`tkazish jarayonlarida olingan natijalardan audit jarayonlarida muhim dalil sifatida ham foydalanish mumkin. Shuningdek , tashqi hamda ichki tekshiruvlarning samaradorligini oshirishga ham o`z hissasini qo`shadi .

Xorijiy iqtisodchi olim Arbatskaya T.G.Rol ,, inventarizatsiyani buxgalteriyaning boshqa tartib -qoidalariga qat`iy amal qilgan holda o`tkazish muhim ahamiyatga ega „²⁹ deb ta`kidlaydi . Inventarizatsiyani tashkil qilish va o`tkazish buxgalteriya hisobi unsurlari bo`lgan hujjatlashtirish , baholash , kalkulasiya , balans , hisobot , ikkiyoqlama yozuv bilan aloqador va aynan bu uzluksiz aloqalar uning korxonada samaradorligidagi iqtisodiy ahamiyatini qo`shimcha dalillari sifatida xizmat qilishi mumkin . Bu aloqalarni birma-bir ko`rib chiqamiz .

Hujjatlashtirish - bu xo`jalik operatsiyalari , sodir bo`lgan voqealar va jarayonlarni yozma yoki elektron tarzda qayd etib borish jarayoni hisoblanadi . Korxonada inventarizatsiya o`tkazish natijasida olingan natijalar qayd etishni talab qiladi va inventarlash jarayonlari hujjatlar bilan bog`lanadi . Xo`jalik faoliyatining ayrim holatlari , masalan , mol-mulkning eskirishi , obyektlarning shikastlanganligi , o`g`irlanganligi yokida yo`qolganligi , omborda mavjud bo`lgan lekin hisob regestrlarida ko`rsatilmagan obyektlar yani ortiqchaliklarning mavjud bo`lishi inventarizatsiya o`tkazilishi natijasida aniqlanishi mumkin . Bunday holatda aniqlangan kamomadlar va ortiqchaliklar hujjatlashtirish orqali belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi .

Baholash va kalkulasiya . Baholash bu korxonada mavjud bo`lgan xo`jalik obyektlari, mablag`lari , majburiyatlari va ularning o`zgarishlarini pul ifodasida aniqlash jarayoni hisoblanadi . Inventarizatsiya natijasida obyektlar belgilangan sanadagi holati asosida baholanadi . Bu esa buxgalteriya hisobotidagi ma`lumotlarga to`liqlik , aniqlik olib keladi va moliyaviy natijalarni tahlil qilish hamda nazorat qilish imkonini beradi . Kalkulasiya bu mahsulot , ish yoki xizmatlarning tannarxini yani mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatish uchun ketgan barcha xarajatlar yig`indisini aniqlash jarayonidir . U inventarizatsiyada tugallanmagan ishlab chiqarishning haqqoniy bahosini o`lchash hamda uning tannarxini belgilash , kelgusi davr xarajatlari , daromadlari va xarajatlari uchun zaxiralarning asoslanganligini belgilashda hamda boshqa hollarda qo`llaniladi .

Inventarizatsiya o`tkazish natijasida olingan ma`lumotlarda kamomadlar yoki ortiqchaliklar aniqlangan holatda , natijalar hisobot davrida buxgalteriya kitoblarida **ikkiyoqlama yozuv** usuli orqali qayd etiladi .

Balans va hisobot - yillik hisobotni tuzishdan avval o`tkazilgan inventarizatsiyadan olingan natijalar tegishli hisobot yilining balansi va yillik buxgalteriya hisobotida aks ettiriladi .

²⁹ Арбатская Т Г Роль инвентаризации в обеспечении достоверности бухгалтерской отчетности организаций бюджетной сферы // Финансовый журнал - 2020. - Т. 12. - С. 96-110



Date: 17th April-2026

Mahalliy iqtisodchi olimlardan D.F.Ruziyeva fikriga ko`ra „, Buxgalteriya hisobi usulining unsuri bo`lgan inventarizatsiya har qanday buxgalteriya subyektiga nisbatan qo`llanildigan quyidagi buxgalteriya tartib-qoidalari bilan chambarchas bog`liq :

Dastlabki tan olish va baholash .

Baholashni qayta ko`rib chiqish (keyingi baholash) .

Moliyaviy hisobotlarda subyekt haqidagi ma`lumotlarni taqdim etish va ochib berish .

Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlash .³⁰

Xulosa qilib aytganda , inventarizatsiyaning iqtisodiy ahamiyati katta va uning ahamiyatini tushunib yetish uchun boshqaruv qarorlari qabul qilishdagi ro`liga hamda buxgalteriyaning boshqa unsurlari bilan aloqasiga ko`z tashlashning o`zi kifoya qiladi . Inventarizatsiya ma`lumotlari asosida xo`jalik faoliyatining real holati baholanadi , mavjud mummolar aniqlanadi va samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish imkoniyati kengayadi . Inventarizatsiyaning shu jihati uning ichki nazorat tizimining ham muhim elementi ekanligini aniqlab beradi .



³⁰ D.F.Ruziyeva . Qishloq xo`jalik korxonalarida inventarizatsiya o`tkazish . diss.avtoref... - T, 2025.